

J. F. KUPER ROMANLARIDA MILLIY OZODLIK G'OYASINING EPIK TALQINI

Qosimov Anvar Bahron o'g'li

Shahrisabz davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi

E-mail: n.z.sayfullaeva@buxdu.uz

THE EPIC INTERPRETATION OF THE IDEA OF NATIONAL LIBERATION IN J. F. COOPER'S NOVELS**ЭПИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОСВОБОЖДЕНИЯ В РОМАНАХ ДЖ. Ф. КУПЕРА****Annotatsiya**

Mazkur maqolada amerikalik yozuvchi Jeyms Fenimor Kuper (1789–1851) romanlarida milliy ozodlik g'oyasining epik talqini keng yoritiladi. Yozuvchi ijodi Amerika mustaqilligi jarayonining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'lib, uning romanlarida ozodlik g'oyasi ikki asosiy yo'nalishda – tarixiy-ijtimoiy va shaxsiy-**insoniy** talqinlarda tasvirlangan. Asarlarda milliy ozodlik qahramonlar xarakteri, tabiat obrazlari va epik syujet dinamikasi orqali keng miqyosda ifodalangan. Tadqiqotda Kuper romanlari qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganilib, o'zbek romanchiligidagi milliy ozodlik g'oyalari bilan qiyoslandi. Xususan, A. Qodiriy, Cho'lpon va Oybek romanlarida xalqning milliy o'zligini anglash, ozodlik va mustaqillik g'oyalari qanday talqin qilingani tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Kuper romanlarida milliy ozodlik g'oyasi nafaqat Amerika xalqi uchun, balki butun insoniyat uchun umuminsoniy qadriyat sifatida talqin etilgan bo'lib, uning ijodi milliy o'zlikni anglash, istiqloq qadriyatlarini shakllantirish va romanchilik rivojida muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: J. F. Kuper, milliy ozodlik, epik talqin, tarixiy roman, amerika romanchiligi, milliy uyg'onish, o'zbek romanchiligi.

Abstract

This article provides a broad analysis of the epic interpretation of the idea of national liberation in the novels of the American writer **James Fenimore Cooper (1789–1851)**. His creative legacy is presented as the artistic reflection of the process of American independence, in which the concept of freedom is depicted in two main dimensions – **historical-social** and **personal-human**. In the novels, the idea of national liberation is expressed on a wide scale through the characters' personalities, the imagery of nature, and the dynamics of epic plots. The research examines Cooper's novels from a comparative-typological perspective, drawing parallels with

the ideas of national liberation in Uzbek prose. In particular, the works of **A. Qodiriy, Cho'ipon, and Oybek** are analyzed in terms of how they interpret national identity, freedom, and independence. The results show that in Cooper's novels the idea of national liberation is interpreted not only as a value for the American people but also as a **universal human value**, while his creative legacy occupies an important place in the processes of national self-awareness, the strengthening of independence values, and the development of prose.

Keywords: J. F. Cooper, national liberation, epic interpretation, historical novel, American prose, national awakening, Uzbek prose.

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается эпическая интерпретация идеи национального освобождения в романах американского писателя **Джеймса Фенимора Купера (1789–1851)**. Его творчество выступает как художественное отражение процесса обретения независимости США, где идея свободы изображается в двух основных измерениях – **историко-социальном** и **личностно-человеческом**. В романах идея национального освобождения выражена в широком масштабе через характеры героев, образы природы и динамику эпического сюжета. Исследование проведено в сравнительно-типологическом аспекте, где произведения Купера сопоставлены с узбекской прозой, в частности с романами **А. Кадыри, Чулпана и Айбека**, в которых анализируется понимание национальной идентичности, свободы и независимости. Результаты показывают, что в романах Купера идея национального освобождения трактуется не только как ценность для американского народа, но и как **общечеловеческая ценность**, а его творчество занимает важное место в процессе осознания национальной идентичности, укрепления ценностей независимости и развития романа.

Ключевые слова: Дж. Ф. Купер, национальное освобождение, эпическая интерпретация, исторический роман, американская проза, национальное пробуждение, узбекская проза.

Kirish

XIX asr boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlari yangi davlat sifatida mustaqillikka erishdi. Biroq milliy adabiyotning shakllanishi sekin kechdi: xalq o'zining madaniy va ma'naviy o'zligini anglash uchun yangi adabiy timsollarga ehtiyoj sezdi. Ana shunday sharoitda Jeym Fenimor Kuper milliy romanchilik asoschilaridan biri sifatida paydo bo'ldi.

Kuper ijodi amerikaliklarning milliy o'zlikni anglashida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi. Uning romanlarida ozodlik g'oyasi shunchaki siyosiy mustaqillik masalasi emas, balki xalqning erkinligi, shaxsning qadr-qimmatini va tabiat bilan uyg'un yashash huquqi sifatida talqin etildi. [3. 156-157]

Mavzuning dolzarbligi shundaki, milliy ozodlik g'oyasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Globallashuv sharoitida milliy adabiyotlarning o'z ildizlariga qaytishi, ozodlik va milliy o'zlikni anglash masalalarini yangicha ko'rib chiqishi zarur.

Maqsad va vazifalar – maqola Kuper romanlarida milliy ozodlik g'oyasining epik talqinini o'rganishga qaratilgan. Bunda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Kuper romanlarida ozodlik g'oyasining tarixiy va badiiy asoslarini tahlil qilish;
2. Obrazlar, syujet va tabiat tasviri orqali epik talqinning xususiyatlarini ochib berish;
3. Kuper ijodini o'zbek adabiyotidagi milliy ozodlik g'oyalari bilan qiyoslash.

Ilmiy yangilik – maqolada Kuper romanlari o'zbek romanchiligi bilan qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan o'rganildi va milliy ozodlik g'oyasining epik talqini umumiy qonuniyat sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

Tarixiy-adabiy metod – Kuper romanlari Amerika mustaqilligi davri kontekstida o'rganildi. Bu yondashuv asarlardagi ozodlik g'oyasining tarixiy ildizlarini aniqlashga imkon berdi.

Qiyosiy-tipologik metod – Kuper romanlaridagi ozodlik talqini o'zbek romanchiligidagi (A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek) milliy ozodlik g'oyalari bilan solishtirildi.

Badiiy-tahliliy metod – qahramonlar tizimi, syujet dinamikasi va tabiat obrazlarining ozodlik g'oyasini ifodalashdagi roli tahlil qilindi.

G'oyaviy-estetik metod – Kuper asarlarida ozodlik g'oyasi umuminsoniy qadriyat sifatida talqin etilganini aniqlashga e'tibor qaratildi. [4. 52-53]

Bu metodlar orqali maqola nafaqat adabiy manbalarni, balki xalq tafakkuri va milliy o'zlik shakllanishini ham ilmiy izoh bilan yoritadi.

Natijalar

Kuper romanlari Amerika xalqining mustamlakachilardan ozod bo'lish kurashini badiylashtiradi. Masalan, "Oxirgi mohikan" romanida Unkas va Chingachguk qahramonlari mahalliy hindularning erkinlik istagini ifodalaydi. Bu obrazlar orqali yozuvchi milliy o'zlikning yo'qolishiga qarshi ogohlantiradi.

“Pionerlar” romanida esa yangi jamiyat qurilishi jarayonida millatning o‘z qadr-qimmatini anglash jarayoni ko‘rsatiladi. Bu asar erkinlik faqat mustaqillik bilan cheklanmasligini, balki jamiyatning ichki tartibotlari va adolat tizimi orqali mustahkamlanishini ko‘rsatadi.

“Preriya” romanida keng dashtlar erkinlik ramziga aylanadi. Bu asarda inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik ozodlikning badiiy timsoliga aylantiriladi.

Epik talqin xususiyatlari

Qahramonlar tizimi – Nataniyel Bamp (Ko‘z o‘tkir) amerikaliklarning milliy xarakterini ifodalaydi, Unkas milliy iftixor va o‘zlik timsoli bo‘lsa, Chingachguk donishmandlik va sadoqatni ifodalaydi.

Tabiat obrazlari – keng o‘rmonlar, tog‘ va dashtlar erkinlik timsoli sifatida xizmat qiladi, xalqning ozodlikka intilishini aks ettiradi.

Syujet dinamikasi – ozodlik uchun kurash janglar, sadoqat va fidoyilik orqali dramatik va epik ko‘lamda tasvirlangan.

Kuper amerika romanchiligiga asos soldi va keyingi yozuvchilarga ta’sir ko‘rsatdi. Mark Tven, Edgar Po, G. Melvill singari adiblarning asarlarida Kuperning ozodlik haqidagi qarashlari seziladi.

Muhokama

J. F. Kuper romanlarida milliy ozodlik g‘oyasi faqat tarixiy voqealarning badiiy talqini bilan cheklanmaydi, balki u xalqning ma’naviy uyg‘onishi, shaxsiy erkinlik va milliy o‘zlikni anglash jarayoni sifatida ham yoritiladi. Yozuvchi o‘z asarlarida ozodlikni keng ijtimoiy-falsafiy tushuncha darajasiga ko‘tarib, uni xalq taqdirining muhim mezoni sifatida ko‘rsatadi. Kuper romanlarida ozodlik nafaqat davlat mustaqilligi, balki xalq ongida shakllangan erkin yashash tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, “Oxirgi mohikan” asarida mohikan qabilasining so‘nggi vakillari orqali yozuvchi ozodlikni xalqning yo‘qolib ketmaslik, o‘zligini asrab qolish masalasi sifatida talqin etadi. Bu jihat o‘zbek adabiyotidagi Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ham yaqqol ko‘rinadi. Unda millatning ozodlik uchun kurashi xalqning o‘zligini asrab qolishning yagona yo‘li sifatida ko‘rsatiladi. [5. 113-114]

Kuper romanlarining eng muhim xususiyatlaridan biri – tabiat tasvirining ozodlik g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirilishidir. Tabiat – erkinlik, soflik va insonga berilgan tabiiy huquq timsoli sifatida tasvirlanadi. “Preriya” romanida keng dashtlar erkinlikning badiiy timsoli bo‘lib, inson va tabiatning uyg‘un yashashi ozodlikning abadiyligini ifodalaydi. O‘zbek romanchiligida ham tabiat obrazlari milliy ozodlik bilan bog‘liq tarzda talqin etiladi. Masalan, Qodiriyning “O‘tkan

kunlar” romanida xalqning istiqlool istagi tarixiy voqealar bilan bir qatorda, milliy muhit va tabiat manzaralari orqali ham berilgan.

Kuper asarlaridagi ozodlik g‘oyasi xalqaro miqyosda ham ahamiyat kasb etadi. Chunki yozuvchi ozodlikni faqat amerikaliklarga xos hodisa emas, balki butun insoniyat uchun dolzarb qadriyat sifatida talqin etadi. Shu jihatdan Kuper ijodi Sharq va G‘arb adabiyotlaridagi milliy ozodlik g‘oyalariga hamohangdir.

Kuper romanlaridagi ozodlik g‘oyasini o‘zbek romanchiligi bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, ikkala adabiyotda ham milliy ozodlik xalqning tarixiy taqdiri, ma’naviy uyg‘onishi va milliy iftixorini ifodalash vositasidir. Kuperda ozodlik qahramonlar va tabiat orqali epik timsol sifatida yoritilsa, Qodiriy va Cho‘lponda milliy uyg‘onish ijtimoiy-madaniy jarayonlar orqali ko‘rsatiladi. Oybek esa milliy ozodlikni ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish bilan bog‘lab, tarixiy shaxs obrazi orqali ifodalagan. [9. 115-116]

Shunday qilib, Kuperning ozodlik haqidagi epik qarashlari turli xalqlar adabiyotidagi umumiy badiiy qonuniyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganilishi mumkin.

Xulosa

J. F. Kuper ijodi amerika romanchiligining poydevori bo‘lib, milliy ozodlik g‘oyasini tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashtirib epik talqinda badiiylashtirdi. Uning romanlari xalqning ozodlik istaklarini obrazlar, syujet va tabiat timsollari orqali keng ko‘lamda ifodaladi. **Kuper ijodi xalqaro adabiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatdi**, Mark Tven, Melvill, Edgar Po singari yozuvchilar ijodiga turtki bo‘ldi. Bundan tashqari, uning asarlaridagi ozodlik qarashlari o‘zbek romanchiligi kabi milliy uyg‘onish adabiyotlari bilan hamohangdir.

Kuperning “Oxirgi mohikan”, “Pionerlar”, “Preriya” va boshqa romanlari milliy ozodlik g‘oyasini xalqning erkinlik uchun kurashi, yangi jamiyat qurilishi va millatning o‘zligini saqlab qolish jarayoni orqali keng miqyosda tasvirladi. Qahramonlar obrazi, tabiat manzaralari va syujet dinamikasi ozodlik ramzini badiiy ifodalashda markaziy o‘rin tutdi.

O‘zbek romanchiligi bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Kuper singari Qodiriy, Cho‘lpon va Oybek ham milliy ozodlik g‘oyasini xalqning o‘zligini anglashning asosiy omili sifatida yoritgan. Bu umumiylik milliy ozodlik g‘oyasining umuminsoniy qadriyat ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

J. F. Kuper romanlari milliy ozodlik g‘oyasini badiiy timsollar orqali epik darajada ifodalash tajribasini yaratgan. Uning asarlari bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash, erkinlik va mustaqillik qadriyatlarini mustahkamlash uchun muhim manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuper, J. F. The Last of the Mohicans. – New York: Penguin, 2008.
2. Kuper, J. F. The Pioneers. – London: Oxford University Press, 1991.
3. Eagleton, T. Literary Theory: An Introduction. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 2008.
4. Жўпаев, Н. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Назаров, Б. Adabiy meros va milliy o'zlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
6. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
7. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
8. Oybek. Navoiy. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2015.
9. Saidov, U. Amerika adabiyotida tarixiy roman. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.